

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
<b>J.G.Numanova</b>	
The role of podcasts and audiobooks in language education .....	877
<b>J.G.Numanova</b>	
The influence of technological advancements on language assessment methods .....	881
<b>O.Z.Dadajonov</b>	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini .....	885
<b>S.A.Yusupova</b>	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels .....	890
<b>N.M.Merganova, N.A.Orifjonova</b>	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari .....	894
<b>G.A.To'lanboyeva</b>	
Muloqot va uning xususiyatlari .....	898
<b>S.A.Xaqnazarov</b>	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi .....	901
<b>N.M.Merganova</b>	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari .....	905
<b>C.X.Azimova</b>	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах .....	908
<b>N.A.Komilova</b>	
The representation of gender in English idiomatic expressions .....	911
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati .....	915
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar .....	919
<b>S.To'lanov</b>	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi .....	923
<b>S.To'lanov</b>	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv .....	927
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi .....	931
<b>I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova</b>	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari .....	934
<b>D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova</b>	
Challenges in translating Uzbek literature to English .....	938
<b>D.S.Usmonova, N.R.Rajabova</b>	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language .....	942
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi .....	946
<b>S.A.Xaqnazarov</b>	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana .....	949
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon yasovchi affikslaming o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari .....	953
<b>G.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limi tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi .....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi .....	961
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi .....	966
<b>S.I.Quziyev</b>	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalinish .....	970
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi .....	975
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
About the term of persuasion .....	979

**ZAMONAVIY SOTSIOLINGVISTIK TADQIQOTLAR SHARHI****"СОВРЕМЕННЫЕ КОММЕНТАРИИ К СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИМ ИССЛЕДОВАНИЯМ"****"MODERN COMMENTARIES ON SOCIOLINGUISTIC RESEARCH"****Abdurazzakov Yusufjon Usmoilovich**

Farg'onan davlat universiteti, katta o'qituvchi

**Annotatsiya**

Jahon tilshunosligi taraqqiyotida sotsiolingvistika til, jamiyat va madaniyat o'tasidagi munosabatlarni o'rganib, o'ziga xos muhim o'rinn tutadi. Shuningdek, zamonaviy dunyoda til turli ijtimoiy-madaniy tushunchalarini shakllantirish va ifodalashda muhim rol o'yinaydi. Bu tushunchalardan biri "jins" va "yosh" konseptlari bilan bog'liq bo'lgan til hodisalarini o'rganish sotsiolingvistik va frazeologiya uchun alohida shamiyat kasb etadi. Qolaversa turli tizimli tillarda "jins" va "yosh" ni ifodalash bilan bog'liq frazeologik birliklarni sotsiolingvistik tadqiq etish, turli madaniy kontekstlarda ularni qollashdagi o'ziga xos xususiyatlari haqidagi g'oyalarni tilda qanday aks ettirishi va qurishini chiqurroq anglash madaniyatlararo muloqot modulining dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Dunyo filologiya ilmida til, jins va yosh o'tasida ijtimoiy va lisoniy alopqani o'rganishga oid sotsiolingvistik tadqiqotlar so'nggi paytlarda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim vazifalardan bo'llib kelmoqda. Ular tildagi ifodalar, stereotiplar va me'yormarning jins va yoshga qanday bog'liqligini, shuningdek, ularning ijtimoiy idrok va xulq-atvorning shakllanishiga qanday ta'sir qilishini tahsil qilishga qaratilgan. Bunday tadqiqotlar til va ijtimoiy omillarning bir-biri bilan o'zaro ta'sirini tushunishga yordam beradi va turli madaniyatlar va jamiyatlarda jins va yosh o'ziga xosligini qurishga ta'sir qiladi.

**Annotatsiya**

В развитии международной лингвистики социолингвистика занимает особое место, изучая взаимосвязи между языком, обществом и культурой. Кроме того, в современном мире формирование и выражение различных социокультурных концепций является важным аспектом. Одним из таких понятий являются явления, связанные с концепциями "пол" и "возраст", которые приобретают особое значение для социолингвистических и фразеологических исследований. Исследование социолингвистических единиц, связанных с выражением "пол" и "возраст", и их особенностей использования в различных культурных контекстах глубже понимает и создает основу для модулей культурного общения. В последние годы социолингвистические исследования, направленные на изучение социальных и лингвистических взаимосвязей между полом и возрастом, стали важной задачей для развития межкультурного общения. Анализ влияния языковых выражений, стереотипов и обычая на гендерные и возрастные аспекты формирования общественного сознания позволяет понять взаимное влияние языка и общественных явлений, а также способствует формированию индивидуальности по половому и возрастному признакам в различных культурах и обществах.

**Abstract**

In the advancement of international linguistics, sociolinguistics holds a special place, studying the relationships between language, society, and culture. Additionally, in the modern world, the formation and expression of various sociocultural concepts are crucial aspects. One such concept pertains to phenomena related to the concepts of "gender" and "age," which acquire particular significance for sociolinguistic and phraseological studies. Investigating sociolinguistic units associated with the expression of "gender" and "age," as well as their usage characteristics in various cultural contexts, deeper understanding and the foundation for cultural communication modules are established. In recent years, sociolinguistic research focusing on examining the social and linguistic relationships between gender and age has become an important task for developing intercultural communication. Analyzing the impact of linguistic expressions, stereotypes, and customs on gender and age aspects of social consciousness helps to understand the mutual influence of language and social phenomena and contributes to shaping individuality based on gender and age in different cultures and societies.

**Kelit so'zlar:** milliy-madaniy tarix, milliy madaniyat, semantika, leksik ma'no, frazeologik birliklar, ekspressiv hususiyat, tarjimashunoslik masalalari.

**Ключевые слова:** национально-культурная история, национальная культура, семантика, лексическое значение, проблемы перевода, экспрессивный признак, фразеологический момент.

**Key words:** national-cultural history, national culture, semantics, lexical meaning, translation issues, expressive feature, phraseological point.

**KIRISH**

Lison inson mavjudligini, uning ijtimoiy tajriba-faoliyatini ta'minlovchi hodisadir. Demak, lison tadqiqi bilan shugullanayotgani kimsa beixtiyor o'zini bilish bilan mashg'uldir, zero, lisoniy faoliyat hodisasining mohiyati – uning ijrochisi – shaxs va ushbu shaxsnинг ijtimoiy, shaxslararo munosabatga kirishishi bilan belgilanadi. [1]

Tilshunoslik jamiyatning muloqot vositasi bo'lgan tilni turli jihatdan o'rganuvchi fan. Shveysariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur tilni ma'lum bir jamiyat belgisi sifatida, tilshunoslikni esa "ijtimoiy hayot doirasidagi belgilar hayotini" o'rganuvchi fan sifatida ta'riflaydi. Sotsiolingvistikani esa tilshunoslikning "til yoki tillarning xususiyatlarini tushuntirish uchun ijtimoiy, shu jumladan kontekstual omillarga murojaat qilishni talab qiluvchi" bo'limi sifatida ko'rish mumkin. Bu yerda asosiy e'tibor, gapning grammatik jihatdan to'g'ri yoki noto'g'riliqi kabi lingvistik kompetensiyalarga emas, balki muloqot qaysi kontekstda qo'llanyapti, u "qanday, qaerda va qachon paydo bo'ldi" kabi masalalarga qaratiladi. [4]

Sotsiolingvistika tilshunoslik va sotsiologiya elementlarini birlashtiradi. U tilni ijtimoiy va madaniy muhit bilan aloqasini hisobga olgan holda tahlil qiladi. Shuni tushunish kerakki, sotsiolingvistika tilga alohida bir tizim sifatida qaramaydi, aksincha, uning jamiyat bilan qanday munosabatda bo'lishini va til hodisalariga ijtimoiy-madaniy omillar qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI**

"Sotsiolingvistika" termini inglizcha "sotsiolingvistics" so'zidan olingen bo'lib, lingvistik tadqiqot yo'naliishi sifatida amerikalik tilshunos Garver S. Karri (1908–1993) nomi bilan bog'liq, u o'tgan asrning 50-yillari boshlarida shunday yozgan edi: "Bugungi taklifimdan asl maqsad [2] nutq omillarining ijtimoiy vazifalari va ma'nolari tadqiqot uchun unumdon maydonni taqdim etadi [10]. Bu soha sotsiolingvistika deb ataladi". Biroq, fanga bu atama ancha ilgariroq, 1939 yilda antropolog Tomas Kallan Xodson tomonidan kiritilgan, shuningdek, dialektolog Ferdinand Vrede (1863–1934), "biz uchun juda zamonaviy bo'lib tuyuladigan atama"ni – ijtimoiy lingvistikani XX asr boshida kiritadi va uning shogirdi Teodor Frings tomonidan rivojlantirildi [7].

XX asr o'talaridan boshlab sotsiolingvistika jadal rivojlandi, tasniflandi va tadqiqot, ta'llimda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Sotsiolingvistika va uning turli yo'naliishlari, yondashuvlari rivojlanishi natijasida bugungi kunda korrelyatsion va interaktiv sotsiolingvistika, shuningdek, makro-sotsiolingvistika va mikro-sotsiolingvistika, til sotsiologiyasi (shuningdek, til sotsiologiyasi) kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Bir qarashda, til va jamiyat o'rtasidagi bog'liqliklar faqat yaqin tarixda o'rganilayotgan mavzudek ko'rindi, lekin bu umuman unday emas. Quyida til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarga alohida e'tibor qaratgan holda tilga qisman bo'lsa ham fundamental nuqtai nazardan qaraladi hamda zamonaviy sotsiolingvistikaning kelib chiqishi va rivojlanishini ijtimoiy hodisa sifatida va kontekstda batafsilroq tahlil qilinadi.

Zamonaviy tilshunoslikda til mohiyati tilning evolyutsion yoki birlamchi o'zlashtirish jarayonida rivojlanishiga turli qarashlar bilan bog'liq ikkita qarama-qarshi yondashuv bilan tavsiflanadi:

Matematik-tabiiy nuqtai nazar maktabi vakillaridan biri Noam Xomskiy [5] va uning universal grammatika konseptsiyasidir. Shu nuqtai nazardan, asosiy masala til strukturasi insonning tafakkur tarziga qanchalik ta'sir qilishi hamda tildan foydalanish qobiliyati qanchalik tug'ma va inson tabiatiatining bir qismi deb hisoblanadi. Tildan foydalanish, ya'ni tilni aloqa vositasi sifatida qo'llash bu tadqiqotlarda butunlay chetda qolib ketgan;

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Noam Homski (1928) hozirgi zamon eng mashhur va ko'zga ko'ringan tilshunoslardan bo'lib, dunyodagi eng ko'p tilga olingen olimlardan biridir[8]. Shuningdek, tez-tez siyosiy masalalarda, jumladan, kapitalizm, ommaviy axborot vositalari va globallashuv tanqidchisi sifatida tanilgan. 1945 yilda o'rta maktabni tugatgach, u Pensilvaniya universitetida falsafa va tilshunoslik bo'yicha o'qishni boshladi va u yerda transformatsion grammatika bo'yicha dissertatsiyani himoya qildi. Keyin Massachusetts texnologiya institutida (MIT) ishlagan. Chomskiy generativ tilshunoslikning asoschisi bo'lib, 1960-yillardan to hozirgi kungacha turli xil yo'naliishlarda, jumladan Prinsiplar va Parametr-modellar va Minimalist dastur ustida ishlab kelmoqda. Barcha yondashuvlarning umumiyl xususiyati universal grammatika mavjudligi haqidagi taxmin.

## TILSHUNOSLIK

Til, madaniyat va jamiyatga oid masalalar va turlicha qarashlar tarixi ko'p asrlarga borib taqaladi. G'arb an'analarida til mavzusiga oid ilk asarlardan biri yunon faylasufi Platonning (miloddan avvalgi 428/427–348/347) "Kratilos" nomli xayoliy dialogi bo'lib, unda ikki pozitsiya qarama-qarshi qo'yilgan va muhokama qilingan. Kratilos har bir narsaning, tabiatidan kelib chiqqan, o'ziga xos "tabiiy" to'g'ri nomi borligiga ishonadi. Demak, narsalar va ularning tildagi nomlari o'tasida qandaydir tug'ma bog'liqlik bor[11].

Germogen: "So'zlar o'z ma'nosini va to'g'ri nomini til hamjamiyatidagi kelishuv va rozilik asosida oladi. Til udan foydalananadigan kishilarning odatlari va axloqlari orqali shakllanadi" [13], – deb ta'kidlaydi.

Bu kontekstdagi muhim jihat shundaki, har ikkala qarash ham muloqotda hal etilmaydi, tilning dunyo bilan qanday aloqasi bor degan savol javobsiz qolmoqda. Ijtimoiy lingvistlar tilning jamiyatda qanday qo'llanilishi va jamiyat tilga qanday ta'sir qilishi bilan qiziqadi. ularning tilga bo'lgan qarashlari so'zlarning ma'nosi til jamoasining urf-odatlari va an'analariga bog'liqligini anglatadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda XX asr boshlarida nemis olimlari tomonidan tilshunoslikdan ajralmagan holda rivojlantirilgan sotsiolingvistika 1950 yillardan keyin amerikalik olimlar tomonidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi va korpus lingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi fan sohalarining rivojlanishiga asos bo'ldi.

Sotsiolingvistika juda keng fan bo'lsa-da, ko'pchilik tadqiqotlarga asoslananadigan bir nechta fundamental tushunchalar mavjud. Mazkur tilshunoslik tilni faqat ichki lingvistik tuzilmalarni hisobga olgan holda emas, balki tildan tashqaridagi omillarni ham hisobga olgan holda o'rganadi:

- Ijtimoiy lingvistika tilning rivojlanishini ijtimoiy kontekstda ko'rib chiqadi.
- Ichki omillar: semantika va sintaksis.
- Tashqi omillar: iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, siyosiy omillar va boshqalar.
- Ikkala yondashuv ko'pincha alohida-alohida amalga oshirilgan va qarama-qarshi deb hisoblanadi; biroq, sotsiolingvistika ularni bir-birini to'ldiruvchi deb hisoblaydi.

Sotsiolingvistikadagi tadqiqotlar nutq faoliyati ro'y beruvchi ijtimoiy tarmoqlarni barchasini tushunishni o'z ichiga oladi. Bu nafaqat makroskopik darajada mamlakat yoki shaharga, balki mahalla yoki oila ichidagi shaxslararo munosabatlар darajasida ham qo'llanilishi mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Большой русско-французский словарь / Щерба Л.В., Матусевич М.И., Никитина С.А. и др. М.: Рус. яз., 2000.
2. Гак В.Г., Ганшина К.А. Новый французско-русский словарь. М: Рус. яз., 1995.
3. Даль В.И. Пословицы русского народа. М., 1957.
4. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. М.: Рус. яз., 1978-1980. Т. I-IV.
5. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка М.: Азъ, 1996.
6. Русский ассоциативный словарь / Ю.Н. Карапулов, Ю.А. Сорокин, Е.Ф. Тараков, Н.В. Уфимцева, Г.А. Черкасова. Кн.1 - 6. М, 1994 - 1998.
7. Русский семантический словарь. Толковый словарь, систематизированный по классам слов и значений. / Под. ред. НЮ. Шведовой. М: Азбуковник, 1998.
8. Сводный словарь современной русской лексики: В 2-х тт. / Под. ред. Р.П. Рогожниковой. М.: Рус. яз., 1991.
9. Словарь русского языка: В 4-х тт. М.: Рус. яз., 1985.
10. Словарь синонимов / Под. ред. А.П. Евгеньевой. Л.: Наука, 1975.
11. Словарь современного русского литературного языка: В 17-ти тт. МЛ.: АН СССР, 1950- 1965.